(8). Yusupov O‘. Nazariy tipologiya asoslari. Toshkent, “Fan”, 2007, 50-bet.
(9). Haywood J.A., Nahmad H.M. A New Arabic Grammar of the Written Language. London, Lund Humphries, 1965, 21 p.
(10). Wright W. A Grammar of the Arabic Language. Cambridge, Cambridge University Press, 1996, 33 p..
(11). Ibn Hishom Al Ansoriy. Sharh Qotrun Nada. Dorul kutub, 2018, 60-bet.
(12). Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2024, 78-bet.

Mirzayeva Nargizoy Sanjarovna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Andijon davlat Texnika instituti; e-mail: mirzayevaandmi@gmail.com)

“UY” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “uy” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvokulturologik xususiyatlari zamonaviy qiyosiy tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tadqiqot nazariy bazasi kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyaga tayanib, 14000 dan ortiq korpus birligi hamda empirik assosiativ eksperimet materiallaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil natijalar “uy” konseptining universal (moddiy obyekt, xavfsizlik) va milliy-madaniy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatdi. Ingliz tilida “house” (bino) va “home” (ruhiy maskan) o‘rtasida semantik differensiyasi aniqlanib, konseptning individualism, shaxsiy erkinlik va qulaylik qadriyatlariga yo‘altirilgani tasdiqlandi.*

Kalit so‘zlar: *“uy” konsepti, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, madaniy qadriyatlar, individualizm, kollektivizm, assotsiativ eksperiment, korpus lingvistikasi.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «ДОМ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье лингвокультурологические особенности концепта «дом» в английском и узбекском языках изучены на основе современных методов сравнительного анализа. Теоретическая база исследования опирается на когнитивную лингвистику и лингвокультурологию и использовалась в более чем 14000 корпусных единицах и эмпирическом ассоциативном анализе. Результаты сравнительного анализа выявили универсальные (материальный объект, безопасность) и национально-культурные особенности концепта «дом» В английском языке семантически определена связь между «house» (здание) и «home» (духовное пространство), и подтверждено, что концепт ориентирован на ценности индивидуализма, личной свободы и комфорта.*

Ключевые слова: *концепт «дом», лингвокультурология, сравнительный анализ, культурные ценности, индивидуализм, коллективизм, ассоциативный эксперимент, корпусная лингвистика.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPT “HOME” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES IN LINGUOCULTUROLOGY

Annotation. *In this article, the linguacultural features of the concept “home” in the English and Uzbek languages were studied based on modern methods of comparative analysis. The theoretical basis of the research, based on cognitive linguistics and linguaculturology, was used in more than 14,000 corpus units and empirical associative analysis. The results of the comparative analysis highlighted the universal (material object, security) and national-cultural features of the concept of “home”. In the English language, a semantic distinction was made between “house” (building) and “home” (spiritual space), and it was confirmed that the concept is oriented towards the values of individualism, personal freedom, and comfort.*

Keywords: *concept of “home”, linguaculturology, comparative analysis, cultural values, individualism, collectivism, associative experiment, corpus linguistics.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy lingvistika tilni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘rganadi. Kognitiv-diskursiv paradigma doirasida til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki milliy dunyoqarash, madaniy xotira va qiymat tizimining asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Lingvokulturologiya – til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini, til birliklarida milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini tadqiq etuvchi fanlararo yo‘nalish bo‘lib, XX asrning oxiri va XXI asr boshida alohida fan sohasi sifatida shakllanirildi. Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti konsept tushunchasidir. Konsept – bu til, ong va madaniyatning kesishmasida joylashgan murakkab ma’naviy tuzilma bo‘lib, u ma’lum bir xalqning madaniy tajribasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Y.S.Stepanov konseptni “madaniyatning genlaridan biri” deb ta’riflaydi [7]. A.Wierzbicka konseptlarni ma’lum bir madaniyat uchun kalit so‘zlar orqali tadqiq etish metodologiyasini ishlab chiqdi [6]. Ingliz tilida “home”, o‘zbek tilida “uy”

leksemalari faqat moddiy obyekt emas, balki murakkab ma'naviy, hissiy, ijtimoiy va aksiologik tizimni ifodalaydi. "Uy" konsepti turli tillar materialida ko'plab tadqiqotlarga obyekt bo'lgan. Ingliz tilidagi "home" konsepti I.F.Porubay, V.G.Pavlenko, E.V.Makarova tadqiqotlarida o'rganilgan [11]. M.Kavalir ingliz, amerikalik va sloven madaniyatlarida "house" va "home" konseptlarining farqlarini ko'rsatdi [13]. O'zbek tilshunosligida "uy" konsepti alohida monografik tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ba'zi ishlar oila, nikoh, milliy qadriyatlar kontekstida "uy" tushunchasiga murojaat qilgan [15]. Biroq ingliz va o'zbek tillarida "uy" konseptining kompleks qiyosiy lingvokulturologik tadqiqoti hozirgacha amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun xalqaro standartlarga moslashtiriladi. Tadqiqotning nazariy asosini kognitiv lingvistika [5;9-b.], lingvokulturologiya [1, 2, 4] va qiyosiy tilshunoslik yo'nalishlari tashkil etdi. Tadqiqot uchun quyidagi manbalardan material to'plandi. Korpus materiallari: British National Corpus (BNC) [14] – 100 million so'zli korpus, ingliz tili uchun 5247 ta "home" va 3856 ta "house" leksemalarini o'z ichiga olgan kontekst tanlab olindi; Corpus of Contemporary American English (COCA)–560 million so'zli korpus, qo'shimcha 2100 ta kontekst. O'zbek milliy korpusi – "uy" leksemasi ishtirok etgan 3428 ta kontekst (badiiy adabiyot, publitsistika, rasmiy hujjatlar); jami korpus materiallari: 14,631 ta kontekst. Paremiologik (maqol va iboralar) materiallari – ingliz maqollari: [15] 234 ta ("home" kalit so'zi bilan); – o'zbek maqollari: [16] 187 ta ("uy" kalit so'zi bilan); – jami: 421 ta maqol va iboralar jamlandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ingliz tilida "uy" tushunchasi uchun ikkita asosiy leksema mavjud: "house" va "home". Ular orasida aniq semantik differensiatsiya kuzatiladi. "House" leksemasi: Oxford English Dictionary ta'rifi: *"A building for human habitation"* (inson yashashi uchun bino). Semantik komponentlar: [+moddiy obyekt], [+bino/arxitektura], [+tuzilma], [-emotsional], [neytral baholash]. "Home" leksemasi: Oxford English Dictionary ta'rifi: *"The place where one lives permanently, especially as a member of a family or household"* (odam doim yashaydigan joy, ayniqsa, oila yoki uy xo'jaligi a'zosi sifatida). Semantik komponentlar: [+/-moddiy obyekt] (abstrakt bo'lishi mumkin), [+yashash joyi], [+oila/jamoa], [+emotsional iliqlik], [+xavfsizlik], [+ijobiy baholash], [+identifikatsiya].

Paremiologik tahlilga ko'ra ingliz tilida "home" so'zi ishtirok etgan 234 ta maqol va ibora tahlil qilindi. Eng mashhur va madaniy jihatdan muhim bo'lganlaridan misollar keltirib o'tamiz.

1. "Home is where the heart is" – uy yurak joylashgan joydir (hissiy bog'liqlik ta'kidlanadi).
2. "East or West, home is best" – sharq yoki g'arb, uy eng yaxshi joy (o'z uyining ustunligi).
3. "There's no place like home" – uy kabi joy yo'q (uyning noyobligi).
4. "Home sweet home" – shirin uy (iliqlik va qulaylik).
5. "Charity begins at home" – xayr-ehson uydan boshlanadi (oila mas'uliyati).
6. "Make yourself at home" – o'zingni uyingizdagidek his eting (mehmondo'stlik).

Aksiologik (qadrivatli) tahlil: Barcha maqollarda "home" ijobiy baholanadi. Asosiy qadriyatlar: emotsional iliqlik va qulaylik, xavfsizlik va tinchlik, oilaviy bag'liqlik, shaxsiy identifikatsiya, axloqiy markaz. "home" konseptining metaforik proyeksiyalari: "home is a container" (saqlash idishi) – "within the home", "outside the home". "home is a refuge" (panoh joy) – "a safe haven", "shelter from the storm". "home is center" (markaz) – "heart of the home", "center of family life". "home is mother" (ona) – "motherland", "homeland". "body is home" (badan uy) – "a home for the soul", "find a home in one's heart".

O'zbek tilidagi "uy" konseptining leksik-semantik tahlilini ko'rib chiqdik. O'zbek tilining izohli lug'ati (2006) "uy" leksemasi uchun 6 ta asosiy ma'noni beradi:

1. Yashash uchun mo'ljallangan bino, turar joy. 2. Oila, xonadon. 3. Turmush, hayot. 4. Urug', avlod, nasl. 5. Ko'chmas mulk. 6. Maskani, turar joyi (hayvonlar uchun ham).

Semantik komponentlari birinchi ma'no (asosiy): [+moddiy obyekt], [+bino], [+yashash joyi] Ikkinchi ma'no (keng): [+/-moddiy] (abstrakt bo'lishi mumkin), [+oila], [+jamoa], [+xonadon], [+ijtimoiy birlik]. O'zbek tilining xususiyati: "Uy" leksemasi ko'pincha oila ma'nosida ishlatiladi. Bu ingliz tilidagi "house/home" differensiatsiyasidan farq qilib, o'zbek tilida bitta leksema ikki ma'noni birlashtiradi, lekin kontekst orqali ajralib turadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Konseptning tuzilishini yadro (universal komponentlar), yaqin periferiya (kuchli milliy rangli komponentlar) va uzoq periferiya (kuchsiz bog'liq komponentlar)da tasvirlash mumkinn. Ingliz tilida "home" shaxsiy erkinnlik bo'lsa, o'zbek tilida izzat, jamoa, gender rollarni ifodalshi aniqlandi. Tadqiqot quyidagi nazariy xulosalarga olib keladi:

7. Konseptlar universal va milliy komponentlardan tashkil topgan. Har bir konsept universal bazaga ega, lekin milliy madaniyat unga o'ziga xos ranglar beradi.

8. Til – madaniyat oynasi. Tilning konseptual tizimini o'rganish orqali milliy madaniyatni tushunish mumkin.

9. Qiyosiy tadqiqotlar zarur. Bir til doirasida konseptni to‘liq tushunish qiyin. Qiyosiy tahlil universal va spesifikni ajratishga yordam beradi.

10.Korpus va assotsiativ ma’lumotlar muhim. Zamonaviy empirik metodlar (korpus lingvistikasi, assotsiativ eksperiment) konseptning real psixolingvistik va madaniy realligini ko‘rsatadi.

11.Madaniyat tipologiyasi. Individualistik madaniyatlar (ingliz): shaxs ustuvorligi; kollektivistik madaniyatlar (o‘zbek): jamoa ustuvorligi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “uy” konsepti har bir madaniyat uchun markaziy, axloqiy va ruhiy jihatdan muhim tushuncha hisoblanadi. Uni o‘rganish orqali milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tuzilma, madaniy an’analar haqida chuqur bilim olish mumkin. Qiyosiy lingvokulturologik tadqiqotlar tillar va madaniyatlar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni tushunishga, madaniyatlararo muloqotni samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие, М., “Академия”, 2001, 208 с.

(2). Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. М., РУДН, 2008. 336 с.

(3). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., Школа “Языки русской культуры”, 1996, 288 с.

(4). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, “Перемена”, 2002, 477 с.

(5). Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. М., АСТ, 2007, 314 с.

(6). Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. М., “Языки славянской культуры”, 2001, 288 с.

(7). Степанов Ю.С. Константы. “Словарь русской культуры”, 3-е изд., М., Академический проект, 2004, 992 с.

(8). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York: Oxford University Press, 1997, 328 p.

(9). Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. М., УРСС, 2004, 256 с.

(10). Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. М., “Гнозис”, 2002, 284 с.

(11). Porubay I.F., Nishanova Z.T. An Analysis of The Concepts Of “Home” And “Family” In the English Language. American Journal of Philological Sciences. 2025, vol. 5, № 1, p. 12–18.

(12). Hofstede G., Hofstede G.J., Minkov M. Cultures and Organizations. 3rd ed., New York, McGraw-Hill, 2010, 576 p.

Mirzayeva Gulnozaxon Ilxamovna (Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi; e-mail: aasadbek5577@gmail.com)

O‘ZBEK TILIDA “BOYLIK VA KAMBAG‘ALLIK” LEKSEMALARINING SIMMETRIK VA ASIMMETRIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Keyingi yillarda tilshunoslikdagi simmetriya va asimmetriya kategoriyalarini o‘rganish nafaqat tilning negizini ko‘rish, ma’lum bir xalqning milliy-mentalital stereotiplarini tushunish imkoniyatini ham beradi. Ushbu maqola tilshunoslikdagi simmetriya va asimmetriya nazariyasi til sohiblariga ma’lum bir sohada ishlatiluvchi leksik birikmalarning asosiy jamg‘armasini butun ko‘lami bilan anglash, muloqot jarayonida ulardan eng zarurlarini qo‘llash, leksik birikmalarning bir-birlari bilan mazmuniy jihatdan bog‘lanishi hamda o‘zbek tilida “boylik/kambag‘allik” leksemalarining simmetrik va asimmetrik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *boylik, kambag‘allik, simmetriya, asimmetriya, leksema, paradigmatik, sintagmatik, miqdor kategoriyasi, konsept.*

Мирзаева Гулнозахон Илхамовна (старший преподаватель Андижанского государственного университета; e-mail: aasadbek5577@gmail.com)

СИММЕТРИЧНЫЕ И АСИММЕТРИЧНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛЕКСЕМ «БОГАТСТВО И БЕДНОСТЬ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В последние годы изучение категорий симметрии и асимметрии в лингвистике не только позволило увидеть основы языка, но и понять национально-ментальные стереотипы конкретного народа. Цель данной статьи – помочь носителям языка понять весь спектр основных лексических сочетаний, используемых в данной области, применять наиболее необходимые в процессе общения, определить семантическую связь лексических сочетаний друг с другом, а также выявить симметричные и асимметричные характеристики лексем «богатство/бедность» в узбекском языке.*

Ключевые слова: *богатство, бедность, симметрия, асимметрия, лексема, парадигматическая, синтагматическая, количественная категория, концепт.*